

**KAM O'RGANILGAN VA TURLI BIOLOGIK FAOL MODDALAR SAQLOVCHI
DORIVOR O'SIMLIKLAR**

Abduxalilova Madinaxon Abdurayim qizi

*Andijon davlat pedagogika instituti, Ani va tabiiy fanlar fakulteti, biologiya
yo'nalishi ikkinchi bosqich talabasi*

E-mail: madinaxonabduxalilova@mail.ru

Annotatsiya. *Ushbu maqolada kam o'rganilgan hamda tarkibida inson salomatligini saqlashga xizmat qiluvchi turli biologik faol moddalar saqlovchi ayrim o'simliklar haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar. *Cucurbita, Cucurbitaceae, saponinlar, alkaloidlar, oshlovchi moddalar, mikroelementlar, nastoyka.*

Yurtimiz dorivor o'simliklar dunyosiga nihoyatda boy. Shunday dorivor o'simliklar ham borki, tarkibida kimyoviy jihatdan ham, fiziologik ta'siri jihatdan ham turli xil moddalar saqlaydilar.

Ayrim dorivor o'simliklar tibbiyotda samarali ishlatib kelinadi, lekin tarkibidagi biologik faol moddalar hali yetarlicha o'rganilgan emas. Ana shunday dorivor o'simliklar va mahsulotlarni bir guruhga jamlanadi. Ularga quyidagi o'simliklar kiradi: Chaga, malina, levzey, ortosifon, pion, evkommiya, kalanxoy, marjondaraxt, qovoq urug'i, tog' quddusi, piyoz, sarimsoq va boshqalar.



Qovoq (Cucurbita) - qovoqdoshlar - Cucurbitaceae oilasiga kiradi. Qovoq turlari bir yillik, poyasining uzunligi 4-5 m ga yetadigan o't o'simlik. Poyasi qirrali, dag'al tukli, jingalaklari yordamida osilib o'sadi. Bargi juda ham yirik, yuraksimon, chuqur 5 bo'lakli, dag'al tukli bo'lib, poyada uzun bandi yordamida ketma-ket joylashgan. Gullari sariq rangli, yoqimli hidli, bir jinsli, erkak gullari barg qo'ltig'ida to'p-to'p bo'lib, urg'ochi gullari esa yakka-yakka holda joylashgan.

Gulkosachasi qo'ng'iroqsimon, 5 bo'lakli, gultojisi voronkasimon qo'ng'iroqsimon, besh bo'lakli. Otagi 5 ta, onalik tuguni 3 xonali, pastga joylashgan.

Mevasi - yirik, ko'p urug'li, seret va shirali, turli rangdagi va shakldagi ho'l meva. Urug'i oq rangli, yapaloq eliipssimon bo'ladi.

Qovoq urug'i tarkibida 50% gacha yog', vitamin C va B 1, organik kislotalar, karotinoidlar va boshqa moddalar bo'ladi. Mevasining etli qismi tarkibida qandlar (4-11%), vitamin C, B 1 va B2 16 m g % gacha karotinoidlar, nikotin kislota va boshqa birikmalar bor.

Qovoq urug'i lentasimon (ba'zan yumaloq) gijjalami haydash uchun ishlatiladi.

Maymunjon (малина) mevasi -Fructus rubi idaei O'simlikning nomi. Oddiy maymunjon (малина) - Oilasi. Rosaceae -ra'noguldoshlar. Malina bo'yi 1-2 m ga etadigan yarim buta. Ildizpoyadan ikki yillik yer ustki novdalar o'sib chiqadi. Birinchi yillik novdalari yashil, yog'ochlanmagan, mayda tikanli bshlib, meva qilmaydi. Bu poyalar qishga borib yog'ochlanadi, tikanlari yo'qolib, kelasi yili iyun-iyul oylarida gullaydi.

Mevasi pishgandan keyin eski poyasi qurib qoladi. Ildizpoyadan har yili Yangi poyalar o'sib chiqadi. Bargalari toq patli, murakkab, 5-7 ta bargchadan tashkil topgan bo'lib, poyada uzun bandi bilan ketma-ket joylashgan. Poyaning yuqori qismidagilari ko'pincha 3 plastinkali bshladi. Bargchasi tuxumsimon, yuqori tomoni tuksiz, pastki tomoni tukli.

Qo'shimcha barglari ipsimon shaklga ega. Gullari ko'rimsiz, yashil-oq rangli, qalqonsimon ro'vakka to'plangan. Gulkosachasi 5 ga qirqilgan, meva bilan birga qoladi. Tojbargi 5 ta, otaligi va onaligi ko'p sonli. Mevasi -qizil rangli, danakli, murakkab xo'l meva. Iyun -iyul oylarida gullaydi, mevasi iyul-avgustda pishadi. Geografik tarqalishi. Deyarli hamma o'rmonlarda, O'rta Osiyoda o'sadi va ekiladi.

Meva tarkibida organik kislotalar (22% gacha olma, limon, salitsilat, vino, chumoli va boshqa kislotalar), 45 mg % gacha vitamin S, qandlar, anotsianlar, oshlovchi moddalar va boshqalar bor. Urug' tarkibida 14,6% yog', 0,7 % sitosterin bor. Mahsulot shamollaganda terlatuvchi dori sifatida qo'llaniladi. Sharbat suyuq dorilar ta'mini yaxshilash uchun ishlatiladi. Dorivor preparatlar. Damlama, sharbat. Mevasi terlatuvchi choylar -yig'malar tarkibiga kiradi.

Sallagul - Rhizomata etradices, herba peoniae O'simlikning nomi. Og'ma sallagul (пион) - Paeonia anomala. Oilasi. Ayiqtovondoshlar -Ranunculaceae. Sallagul ko'p yillik, bo'yi 60-100 sm ga etadigan o't o'simlik. Ildizpoyasi ko'p boshli, gorizontal joylashagan va katta bo'ladi. Poyasi bir nechta, tik o'suvchi, shoxlanmagan, asos qismi qalin tangachalar bilan qoplangan. Bargi 3-5 ta, oddiy, tuksiz, ikki marta 3 bo'lakchaga chuqur qirqilgan yoki patsimon ajralgan. O'rtadagilari uch bo'lakli, yonidagilari lantsetsimon, tekis qirrali. Bargi bandi bilan poyaga ketma-ket joylashgan.

Gullari yirik bo'lib, yakka-yakka xolda poyaning uchki qismiga o'rnashgan. Gulkosacha bargi yashil rangli, 5 ta gultoqi bargi qizil, ba'zan och qizil rangli, 8 ta (ba'zan undan ham ko'p). Mevasi ko'p urug'li, 3-5ta barghasidan tashkil topgan. May -iyunda gullaydi, mevasi avgustda yetiladi



Mahsulot tarkibida 1,6% gacha efir moyi, salitsin glikozidi, 73,5% kraxmal, 1,66-2,6% iridoidlar, saponinlar, alkaloidlar, oshlovchi moddalar, mikroelementlar bo'ladi. Ishlatilishi. Tibbiyotda preparatlar nerv sistemasida funksional buzilishida,

nevrosteniyada, uyqusizlikda tinchlantiruvchi vosita sifatida ishlatiladi. Dorivor preparatlari. Nastoyka (40% spirtidan tayyorlaydi). Pion ildiz vaer ustki qismining 10% li nastoykani nafas olish funktsiyasini va qon bosimini o'zgartirmasdan MNS tinchlantiruvchi ta'sir qiladi. Ortosifon bargi -Folia orthosiphonis.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

10. Ahmedov O'., Ergashev.A, Abzalov A. va boshqalar. Dorivor o'simliklar yetishtirish texnologiyasi va ekologiya. Toshkent. Tafakkur-bo'stoni.2018.
11. Karimov V., Shomahmudov A. Xalq tabobati va zamonaviy ilmi tibda qo'llaniladigan shifobaxsh o'simliklar. —Toshkent, 1993.
12. .KursanovA. I. vaboshqalar. Botanika 2-tom –Toshkent, 1963.
13. .Mustafoyev.S.M. Botanika –Toshkent, 2002.
14. .Nabiyev M. Botanika atlas-lug'ati. —Toshkent, 1969.
15. Nabiev M. LechebnyedaryChatkala –Toshkent, 2004.
16. Oripov.R.O, Xalilov.N.X. O'simlikshunoslik –Toshkent, 2007.
17. Prator.O`P, Nabiyev.M.M. O`zbekiston yuksak o`simliklarning zamonaviy tizimi. – Toshkent, 2007.
9. Yusupova, Z. A., & Baratjon ogli, S. F. (2022). LABGULDOSHLAR OILASI VAKILLARINING HAYOTIY SHAKLLARI, MORFOLOGIYASI VA TARQALISHI.IJODKOR O'QITUVCHI,2(24), 472-479.
10. Yusupova, Z. A., & Baratjon o'g'li, S. F. (2022). LAMIACEAE OILASINING EFIR MOYIGA BOY BO'LGAN BAZI TURLARINING MORFOLOGIYASI.Scientific Impulse,1(2), 692-695.
11. Yusupova, Z. A., & Baratjon o'g'li, S. F. (2022). BIOECOLOGICAL PROPERTIES OF MEDICINAL SPECIES OF THE MINT FAMILY

(LAMIACEAE).Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities,10(11), 183-190.

12. Yusupova, Z. A., & Baratjon ogli, S. F. (2022). NATURAL MEDICINAL HERBS OF THE LAMIACEAE FAMILY AND THEIR MEDICAL PROPERTIES.JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH,2(13), 64-68.

13. Yusupova, Z. A., & Baratjon ogli, S. F. (2023). LIFE FORMS, MORPHOLOGY AND DISTRIBUTION OF REPRESENTATIVES OF LAMIACEAE FAMILY.Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities,11(1), 288-295.

14. Baratjon o'g'li, S. F. (2022). SPECIES OF THE LAMIACEAE FAMILY WITH SPICE PROPERTIES.Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities,10(11), 85-89.

15. Baratjon o'g'li, S. F. (2022). ПРИРОДНЫЕ ЛЕКАРСТВЕННЫЕ ТРАВЯНИСТЫЕ РАСТЕНИЯ ПРЕДСТАВИТЕЛЕЙ СЕМЕЙСТВА LAMIACEAE И ИХ ЛЕЧЕБНЫЕ СВОЙСТВА. Scientific Impulse,1(5), 1048-1055.

16. Yusupova, Z. A., & Baratjon ogli, S. F. (2023). ESSENTIAL OIL PRESERVATIVE CONTAINING TIMOL REPRESENTATIVES OF THE LAMIACEAE FAMILY.SO _NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI,1(6), 104-108.

17. Yusupova, Z. A., & Baratjon ogli, S. F. (2023). LIFE FORMS, MORPHOLOGY AND DISTRIBUTION OF REPRESENTATIVES OF LAMIACEAE FAMILY.Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities,11(1), 288-295.

18. Baratjon ogli, S. F. (2023). Morphology, Chemical Composition and Medical Use of Ocimum Plant. Texas Journal of Agriculture and Biological Sciences, 13, 5-8.

19. Yusupova, Z. A., Baratjon ogli, S. F., & Abduqunduzovna, M. Z. (2023). Medicinal Plants Growing in Our Republic Medicinal Properties. Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities, 15, 5-7.